

# **Termiz shahrida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish yo'lga qo'yilmoqda**

Image not found or type unknown



Termiz shahrida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish yo'lga qo'yilmoqda

Bugun, Termiz shahar hokimligida 2021 yil 21 aprely sanasidagi O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5088-sonli Qarori ijrosi yuzasidan “Temir yo’lchi” va “Katta bog” mahallalarida tashkil etilishi rejalashtirilgan yoshlar sanoat zonalarining loyiha tashabbuskorlari bo’lgan yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Ushbu uchrashuvda Termiz shahriga biriktirilgan Respublika ishchi guruhi xususan, Investitsiya va Tashqi savdo vazirligi, Respublika “Milliybank”, Transport vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish qo’mitasi vakillari ishtirok etishdi.

Tadbir jarayonida yosh loyiha tashabbuskorlari sanoat zonalari tashkil etishda, duch kelishi mumkin bo’lgan muammolar borasida, zaruriy taklif va tavsiyalarga ega bo’lishdi. Shuningdek, 45dan ziyod yosh tadbirkorlar o’zlarining tashabbuskor loyihalarini amalga oshirish mexanizmi hamda biznes loyihalari taqdimotlarini o’tkazishdi. Qizg’in baxs-munozaralarga boy bo’lgan uchrashuv kelgusida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash borasida muhim ahamiyat kasb

etishi muqarrar.

